

XAKIMOVA Nigora

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasi katta o'qituvchisi*

YODGOROVA Soliha

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

SUNNAT ATAMASINING ISLOM HUQUQIDA QO'LLANILISHI

APPLICATION OF THE TERM SUNNAH IN ISLAMIC LAW

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕРМИНА СУННА В ИСЛАМСКОМ ПРАВЕ

Annotatsiya: Maqolada sunnat atmasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari hamda islom huquqida qo'llanilishi mazhablar misolida ochib berilgan. Bugungi kunda usulul fiqh ilmida qo'llaniladigan sunnat atmasi rasman imom Shofe'iyning "Risola" asari yozilganidan so'ng iste'molga kiritilgan. Bu davrga qadar sunnat so'zi o'zining lug'aviy va fiqhiiy ma'nolarida Payg'ambar (alayhis-salom) hadislarida va sahobiylar tomonidan qo'llanilgani maqolada yoritib berilgan. Sunnat atamasini islom huquqida qo'llanishi borasidagi qarshilarni atroflicha tahlil qilish bu istilohni fiqhning barcha sohalarida to'g'ri qo'llash uchun zarur hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Payg'ambar, sunnat, Rasululloh sunnati, hadis, hikmat, usulul fiqh, muhaddis, fuqaho, islom huquqi, osor, xabar

Аннотация: В статье на примерах мазхабов раскрываются технические и терминологические значения термина Сунна и его употребление в исламском праве. Сегодня термин Сунна, который используется в сфере усул аль-фикх, официально введен имамом Шафии в его труде «ар-Рисала». До этого слово Сунна употреблялось в своем лексическом и юриспруденционном значении в хадисах Пророка (мир ему) и сподвижников. Детальный анализ мнений относительно использования термина Сунна в исламском праве необходим для правильного применения этого термина во всех областях исламской юриспруденции.

Ключевые слова: Пророк, сунна, сунна Пророка, хадисы, хикма, усул ал-фикх, мухаддисы, факихи, исламское право.

Annotation: The article describes technical and terminological meanings of the term of Sunnah and its usage in Islamic law with the examples of madhhab. Today, the term Sunnah, which is used in the sphere of usul al-fiqh, was officially introduced by Imam Shafi'i in his work "ar-Risala". Until this period, the word Sunnah was used in its lexical and jurisprudential meanings in the hadiths of the Prophet (peace be upon him) and the Companions. A detailed analysis of the opinions regarding the use of the term Sunnah in Islamic law is necessary for the correct application of this term in all areas of Islamic jurisprudence.

Key words: Prophet, Sunnah, Sunnah al-Rasul, hadith, hikmah, usul al-fiqh, muhaddith, fuqaha, Islamic law, athar, khabar.

KIRISH

Sunnat so'zi lug'atda aniq-ravshan yo'l, odat ma'nosini bildirish bilan bir qatorda me'yoriy amaliyot yoki o'rnatilgan xulq-atvorni anglatish uchun ham ishlatiladi. Yaxshi va yomon odatlarga ham lug'atda sunnat deyiladi [9:288]. Shuning uchun ham Payg'ambarimiz (alayhis-salom): «Kim yaxshi bir sunnat, ya'ni odatni joriy qilsa, bas unga o'sha ishning ajri va uni qilganlarning ham ajri beriladi. Ularning ajrlaridan hech narsa kamaytirilmaydi. Kim yomon bir sunnatni joriy qilsa, bas unga o'shaning va uni to'qiyomatgacha qilganlarning gunohi bo'ladi. Ularning hech narsa kamaytirilmaydi», deganlar [9:288].

Arabiston yarim orolida islom dini joriy bo'lguniga qadar, arablar o'z ajdodlaridan meros bo'lib qolgan va qadimdan o'zlari odatlanib kelgan amallarga ham sunnat so'zini ishlatishgan. Islomgacha bo'lgan davrda har bir arab qabilasining o'ziga xos sunnatlari bo'lgan va ularning o'zligini mana shu sunnatlar belgilab bergan.

Sunnatning aksi bid'at bo'lib, bu so'z lug'atda "biror narsani yangidan paydo qilish", "o'ylab toppish" degan ma'nolarni anglatadi. Izz ibn Abdussalom bid'atga: Rasululloh (alayhis-salom) davrlarida bo'lmagan narsa deya ta'rif bergan [1:29]. Fuqaholar istilohida sunnat bid'atning

muqobilidagi narsa bo'lib, Payg'ambardan (alayhis-salom) sobit bo'lgan farz yoki vojib bo'lmagan narsalarga sunnat deyiladi [11:69].

ASOSIY QISM

Qur'onda «sunnat» va uning ko'pligi «sunan» so'zlari bir necha marta, aniqrog'i 16 marta ishlatilgan [4:47]. Bu oyatlarning barchasida sunnat so'zi belgilab qo'yilgan amallar yoki xulq-atvorni anglatish uchun ishlatilgan. Muhaddislar istilohida sunnat atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Payg'ambardan (alayhis-salom) asar bo'lib qolgan gap, ish, taqdir, xalqiy (tana tuzilishi), axloqiy sifatlar va tarjimai holga tegishli ma'lumotlar "sunnat" deb ataladi [11:8]. Fiqh ulamolari esa, Payg'ambarning (alayhis-salom) amaliy hukmlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlari, fe'llari hamda taqdirlerini sunnat deya ta'riflashadi [8:74, 7:3]. Sunnati Nabiy (yoki Sunnati Rasul), ya'ni Payg'ambar sunnati ma'nosidagi ibora Qur'onda bu tarzda uchramaydi. Ammo "Ahzob" surasi 21-oyatda Payg'ambarning (alayhis-salom) ibratli xulq-atvori haqida kelgan "أَسْوَةٌ حَسَنَةٌ" (go'zal namuna) iborasi Qur'ondagi sunnati Nabiyning eng yorqin sinonimidir.

Ushbu oyatda Payg'ambarning (alayhis-salom) sunnatiga ishora qilib, mo'minlarga quyidagi tarzda murojaat qilinadi: (Ey, imon keltirganlar!) Sizlar uchun – Alloh va oxirat kunidan umidvor bo'lgan hamda Allohni ko'p yod qilgan kishilar uchun Allohning payg'ambarida go'zal namuna bordir [10].

Shuningdek, Qur'oni karimga hamroh bo'lgan hidoyat manbai sifatida sunnatga nisbatan «hikmat» so'zidan ham foydalaniladi. Imom Shofe'iy Qur'on ma'nosida qo'llanilgan «al-Kitob» so'zi bilan birga «Hikmat» lafzining yonma-yon kelganiga kamida yettita oyatni misol tariqasida keltiradi. Ulardan biri "Jum'a" surasi 2-oyatidir: "U (Alloh) omilar (savodsiz kishilar) orasiga o'zlaridan bo'lgan, ularga (Uning) oyatlarini tilovat qiladigan, ularni (shirk va jaholatdan) poklaydigan hamda ularga *Kitob (Qur'on)* va *Hikmat (Hadis)*ni o'rgatadigan (bir) payg'ambar (Muhammadni) yuborgan zotdir. Haqiqatan, (ular payg'ambar kelishidan) ilgari aniq zalolatda edilar".

Bu oyatda Alloh taolo odamlarni "*Kitob va Hikmatni o'rgatish*" orqali tarbiyalash va poklash uchun Payg'ambar yuborgani aytiladi. Imom Shofe'iyning bu talqinida oyatdagi "Hikmat" so'zi Payg'ambar (alayhis-salom) sunnatini bildiradi va ko'pchilik ulamolar mazkur fikrni qo'llab-quvvatlaydilar [8:79].

«Sunnat» va «Rasululloh sunnati» atamalarini Payg'ambarning (alayhis-salom) o'zlari va sahobalari ham qo'llashgan. Hadisi sharifda Rasululloh (alayhis-salom): "Sizlarga ikki narsani qoldirdim. Agar ularni mahkam tutsangiz, hech adashmaysiz. Bular Allohning Kitobi va mening *Sunnatimdir*", deganlar [11:13].

Boshqa bir hadisda Muoz Ibn Jabalning Hims ahlidan bo'lgan bir guruh sohiblaridan rivoyat qilinadi: Rasululloh (alayhis-salom) Muozni Yamanga yuborishni iroda qilganlarida: «Biror masalaga duch kelsang, qanday qilib hukm chiqarasan?» dedilar. Allohning Kitobi bilan dedi. Allohning Kitobidan topmasang-chi?» dedilar. "*Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari bilan*", dedi. «Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatidan xam, Allohning Kitobidan ham topmasang-chi?» dedilar. «Fikrim bilan ijti-hod qilaman, bo'sh kelmayman», dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uning ko'ksiga urdilar va: «Alloh Rasulining vakilini Allohning Rasulini rozi qiladigan narsaga muvaffaq qilgan Allohga hamd bo'lsin!» dedilar» [12:81].

Imom Shotibiy o'zining mashhur "Muvafoqot" asarida quyidagilarni yozadi: "Umar ibni Hattobdan rivoyat qilinishicha, u qozi Shurayhga: Senga Allohning Kitobida ayon bo'lgan narsada birovdan hukm so'rama. Senga Allohning Kitobida ayon bo'lmagan narsada Rosulullohning (alayhis-salom) *sunnatlariga ergash*" deb yozgan [12:81].

Payg'ambar (alayhis-salom) sunnatlari huquq nazariyasiga hijratning birinchi asri oxirlarida Iroq faqihlari tomonidan kiritilgani haqida dalillar mavjud. Masalan, Umaviylar hukmdori Abdulmalik ibn Marvonga Hasan Basriy va xoriyylarning yetakchisi Abdulloh ibn Ibod tomonidan yozilgan ikki maktubda «Payg'ambar sunnati» atamasi uchraydi. Mazkur maktublar «Payg'ambar sunnati» atamasining rasmiy tarzda qo'llanishi birinchi asr oxiriga to'g'ri kelganini anglatadi. Lekin bu

dalil atamaning o'sha vaqtgacha ishlatilmaganini bildirmaydi [6:5].

Dastlab «sunnat» atamasi faqat Payg'ambarning (alayhis-salom) sunnatlari bilan chegaralanib qolmagan, balki sahobalar jamoasi va ularning ibratli amallari majmuasini anglatish uchun ham ishlatilgan. «Sunnat» atamasini bu tarzda qo'llash ikkinchi asrning oxiri, ya'ni, imom Shofe'iy bu atamani faqat Payg'ambarning (alayhis-salom) sunnatlari ma'nosida qo'llashni asoslab berguniga qadar davom etgan. Ba'zan arab tilidagi «al» aniqlik artikli sunnat so'ziga aynan Payg'ambarning (alayhis-salom) sunnati ekanini bildirish uchun qo'shilgan. Hijratning ikkinchi asri oxiriga qadar, sunnat so'zi o'zining lug'aviy-fiqhiy ma'nosida keng qo'llanilgan bo'lib, undan so'ng ulamolar bu atamadan faqat Payg'ambarning (alayhis-salom) me'yoriy xulq-atvorini anglatish uchun foydalanganlar [7:4]. Mazkur davrdan so'ng ulamolar Abu Bakr yoki Umarning sunnatlari kabi iboralarni qo'llashni to'xtatganlar.

Sunnat so'zi lug'atda yo'l degan ma'noni anglatga ham, Allohning sunnati deyilganda boshqa ma'noni, Rasulullohning (alayhis-salom) sunnati deyilganda o'zga ma'noni, fiqh kitoblarida kelganda esa yana boshqa ma'noni ifoda etadi [13:22].

Shoh Valiyyulloh Dehlaviy "Hujjatulloh al-bolig'a" kitobida Alloh taoloning sunnati borasida shunday deydi: Alloh taolo har bir sababga qandaydir salohiyatni joylab qo'ygan. Binobarin, sabablardan o'sha salohiyatlarga ko'ra natijalar paydo bo'ladi va mana shu, ya'ni sabablardan natijalarni paydo qilish Allohning sunnatidir. Masalan, xurmo danagi ekilsa, hargiz bug'doy hosili olinmaydi. Xurmo danagi ekilsa, faqat xurmo unadi. To'g'ri, Alloh taolo barcha narsani qilishga qodir, lekin U Zot salohiyatlarni shunday qilib joylab qo'ygan. Bu Alloh taoloning sunnati bo'lib, Uning sunnatini hech kim o'zgartira olmaydi. Qur'oni Karimda shunday marhamat qilinadi: Siz Allohning sunnatida aslo o'zgarish topmassiz" (Ahzob suradi 62-oyat). Demak, Allohning sunnati U Zotning abadiy qonuni, dasturi hamda odati degan ma'nolarni anglatar ekan [13:24-25]

Sunnat atamasi keyingi davr ulamolari nazdida faqat Allohning sunnati va Rasululloh (alayhis-salom) sunnatlari bilan chegaralanishi kerak edi.

Ammo ulamolar orasida Rasulullohning (alayhis-salom): Mening sunnatimni ham, mendan keyingi roshid hamda mahdiy xalifalarining sunnatini ham o'zlaring uchun lozim bilinglar. Uni mahkam ushlenglar va uni oziq tishlaringiz bilan tishlanglar" [13:61] mazmunidagi hadisning mavjud ekani bu boradagi ba'zi ixtiloflarga sabab bo'lgan.

Lekin Shavkoniyning ta'kidlashicha, bu hadisda Rasululloh (alayhis-salom) "sunnat" so'zini "yo'l" ma'nosiga yoki sahobalar ko'rsatgan "yo'l" mazmunida ishlatganlar [5:186]. Uning fikricha, Payg'ambar (alayhis-salom) sunnat so'zini keyinchalik ulamolar bu atamaga bergan xos ma'noda ishlatmaganlar.

Bundan tashqari, Anvarshoh Kashmiriy xulfoi roshidinning maqomlarini bayon qila turib juda ham mo'jaz bir jumla ishlatgan: "Xulfoi roshidinning maqomi tashre' bilan ijthod orasidadir." Tashre' payg'ambarlarning maqomi, ijthod esa mujtahid imomlarning ishidir. Xulfoi roshidinning maqomi tashre'dan pastroq, mujtahidlikdan esa yuqori maqomdir [13:61].

"Sunnat" atamasi fiqh sohalarida bir qancha ma'nolarda qo'llaniladi. Usulul fiqh ulamolari nazdida sunnat shariat manbasi va Qur'ondan keyingi fiqhiy dalilni bildiradi. Usulul fiqh ulamolari istilohida Payg'ambardan (alayhis-salom) sodir bo'lgan shar'iy hukmga dalil bo'lishga salohiyati bor har bir gap, amal yoki taqrirga sunnat deyiladi [11:70].

Fuqaholar istilohida esa, Payg'ambardan (alayhis-salom) sodir etilgan va shar'iy hukm bo'lishga salohiyati bor bo'lgan har bir narsa ham sunnat bo'lavermaydi. Balki o'sha narsalardan farz va vojibning darajasidan keyin keladiganlargina sunnat bo'ladi. Ushbu fuqaholar istilohidagi sunnatning hukmi nima, deyilganda, u – shariat tomonidan jazm etmagan holda talab qilingan narsa bo'lib, uni qilgan odam savob oladi, qilmagan odam iqobga qolmaydi, deb javob berilishini fuqaholardan o'rganiladi [11:69].

Jumhur ulamolarning fikriga ko'ra "sunnat" avvalo umumiy mandub toifasiga kiruvchi taklifiy hukmni bildiradi. Garchi bu ma'noda sunnat mandub bilan deyarli sinonim sifatida qo'llanilgan bo'lsa-da, bu sunnatning mandub atamasi bilan bir ma'noda ekanini anglatmaydi. Boshqa tarafdin sunnat shariat manbasi sifatida nafaqat mandubni,

balki jumhur ulamolar tasnifidagi vojib, harom, makruh va mubohni ham sobit qilishi mumkin. Demak, usulul fiqh sohasida u yoki bu hukm Qur'on yoki sunnat bilan sobit qilinadi, fiqh ilmida esa, u yoki bu amal farz, vojibdan keyin keluvchi sunnat deb baholanadi [5:186].

Ulamolar sunnat va hadis atamalarini deyarli bir ma'noda qo'llaganiga qaramay, bu ikki atama o'ziga xos ma'nolarga ega. Hadis so'zi lug'atda biror voqeaning bayonidan iborat rivoyat yoki xabar ma'nolarini bildiradi. Bu so'z o'zining lug'aviy ma'nosida Qur'onda 23 marta uchraydi va barcha holatlarda qissa yoki xabar ma'nosini bildiradi. Bu oyatlarning hech birida hadis so'zi o'zining istilohiy ma'nosida, ya'ni Payg'ambarning (alayhis-salom) alohida so'zlari ma'nosida qo'llanilmagan. Payg'ambar (alayhis-salom) vafotlaridan keyin u zotning hayotlari va faoliyatlari bilan bog'liq rivoyatlar boshqa barcha tarixiy voqealarga qaraganda ustuvor hisoblangani uchun hadis atamasi faqat Payg'ambardan (alayhis-salom) sodir bo'lgan ishlar uchungina qo'llanilgan [7:2].

Hadisning sunnatdan farqi shundaki, hadis Payg'ambarning (alayhis-salom) xulq-atvorlari haqidagi rivoyat, sunnat esa undan olingan namuna yoki me'yordir. Garchi sunnat fiqhiy atama sifatida iste'molga kiritilishidan oldin keng tushuncha bo'lgan bo'lsa ham, hadis sunnatning vositasi yoki yetkazuvchisi hisoblangan. U vaqtda sunnat atamasi nafaqat Payg'ambardan (alayhis-salom) rivoyat qilingan hadislar, balki musulmon jamoasi odatiy amallariga nisbatan ham qo'llanilgan. Ammo hadis va sunnatning lug'aviy ma'nolari va istilohiy qo'llanishi bir-biridan farqlangandan so'ng, sunnat atamasi faqat Payg'ambarning (alayhis-salom) so'zlari, amallari va taqirlariga nisbatan qo'llanila boshlagach, bu ikki atama sinonim sifatida iste'molga kirdi. Bu ko'p jihatdan imom Shofe'iyning sa'y-harakatlari natijasi bo'lib, sunnat hadisdan olinishi kerakligi va hadisdan tashqari sunnat yo'q ekani mazkur imom tomonidan asoslab berilgan. Imom Shofe'iydan oldingi davrda "hadis" atamasi sahobalar va ularning vorislari bo'lmish tobe'inlarning gaplariga nisbatan ham tatbiq etilgan. Bundan ko'rinadiki, sunnat va hadis o'rtasidagi tafovut bekor qilingan so'ng "hadis" atamasi faqat Payg'ambarning (alayhis-salom)

amallari va so'zlari uchun qo'llanila boshlagan [2:3].

Bulardan tashqari xabar va osor atamalari ham mavjud bo'lib, ular ko'pincha «hadis» atamasiga sinonim sifatida ishlatiladi. «Xabar» so'zi lug'atda yangilik yoki xabar ma'nolarini, "osor" esa iz, belgi, yodgorlik, rivoyat degan ma'nolarni anglatadi. Masalan, "xabarul vohid" iborasidagi "xabar" so'zi ohad hadis ma'nosini bildiradi. Aksariyat ulamolar hadis, xabar va osor atamalarini sinonim sifatida qo'llagan bo'lsalar, ularning ba'zilar xabarni osordan farqlaydilar. Xabar atamasi hadis bilan bir ma'noda ishlatilgan bo'lsa, osor atamasi sahobalardan sodir bo'lgan ishlarga nisbatan qo'llanilgan [7:3].

XULOSA

Aksariyat ulamolar mujtahid sahobalardan sodir bo'lgan ishlarni naqliy dalillardan biri sifatida tasdiqlaganlar. Ilk huquq maktablari faqihlarining qarashlari mana shu asosda shakllangan. Masalan, imom Molik, Payg'ambarning (alayhis-salom) sahih sunnatlari sahobalarda mujassam bo'lgani sababli, osorni hadis darajasida qabul qilgan. Haqiqatan ham, sahobalar orasida o'zining fiqhiy salohiyati va manbalarni chuqur bilishi tufayli fatvo berish vakolatiga ega nufuzli shaxslar mavjud edi. Ba'zan bu sahobalarning masalalarni hal qilish yo'lidagi jamoaviy qarori ham osor deb atalgan. Imom Shofe'iyning nazdida esa, osor Payg'ambarning (alayhis-salom) sunnatini anglatmaydi. Payg'ambardan (alayhis-salom) hadis bo'lmaganida imom Shofe'iy sahobalar yo'lga ergashgan. Imom Shofe'iy sahobalar o'rtasida ixtilof mavjud bo'lgan masalalarda xulafoi roshidinning fikrini yoki sahobalardan kimning qarashi Qur'on bilan uyg'unroq bo'lsa o'sha sahobiy fikrini afzal ko'rgan [3:128-130].

Imom Shofe'iyning fikriga ko'ra, sunnat Payg'ambardan (alayhis-salom) to'g'ridan-to'g'ri ishonchli roviylar zanjiri orqali yetib kelgan hadis shaklida bo'ladi va jamiyat uni qabul qilish yoki qilmasligidan qat'i nazar fiqh manbai hisoblanadi. Imom Shofe'iy, Payg'ambardan (alayhis-salom) rivoyat qilingan hadis ohad bo'lsa ham, sahobalar va salafi solihlarning amallari va qarashlaridan ustun bo'lishi kerakligini ta'kidlagan [3:177].

Imom Shofe'iy o'zining mazkur sa'y-harakatlarini, asosan, hadisdan ko'ra sahobalarning qarashlarini afzal ko'rgan faqihlarga qarshi qaratgan. Masalan, imom Molik o'zining "Muvatto" asaridagi har bir fiqhiy bobni Payg'ambardan (alayhis-salom) rivoyat qilingan hadislar bilan boshlaydi, lekin fiqhiy masalalarni batafsil ochib berishda hadisning osordan ustunligi tamoyiliga har doim ham amal qilmaydi. "Muvatto" asarida 1720 ta hadis mavjud bo'lib, ulardan 822 tasi Payg'ambardan (alayhis-salom) rivoyat qilingan hadislar bo'lsa, qolgani sahobalar, salafi solihlar va boshqalardan rivoyat qilingan osorlardan iborat. Mazkur holat imom Molik hadis va osor o'rtasidagi farqqa katta e'tibor bermaganini ko'rsatadi. Bu esa, imom Shofe'iyning Payg'ambardan (alayhis-salom) rivoyat qilingan hadisning ustuvor ekanini asoslashga qaratilgan urinishlarining asosiy mavzusi hisoblanar edi [6:29-34].

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aliqulov A. Bid'at. // Hidoyat. – 2020. №1. – B. 29-30.
2. Ahmed Hasan. The Early Development of Islamic Jurisprudence. – Delhi: Adam Publishers, 1994. – 234 p.
3. Imom Shofe'iy. Risola. // Tarjima va izohlar muallifi: Majid Xadduri // ingliz tiliga akademik tarjima. – Kembrij: The Islamic Text Society, 1961. – 379 b.
4. Muhammad Hoshim Kamoliy. Islom huquqi asoslari. – Kembrij: The Islamic texts society, 2003. – 546 b.
5. Muhammad Ibn Ali Shavkoniy. Irshod al-fahul / Abu Hafs Samiy Ibn al-Arobiy al-Ushariy tahqiqi. – Ar-Riyod, 2000. – J. I. – 622 p.
6. Muhammad Yusef Guraya. Origins of Islamic Jurisprudence (With Special Reference to Muwatta Imam Malik). – Chicago: Kazi Publications, 1992. – 130 p.
7. Mustafa Al-Azami. Studies in Hadith Methodology. – Kuala Lumpur: Islamic book Trust, 1930. – 122 p.
8. Mustafa Sibae. The Sunna and Its Role in Islamic Legislation. // The author of the translation and comments: Faisal Ibn Muhammad Shafeeq // academic translation into English. – Riyadh: International Islamic Publishing House, 2008. – 576 p.
9. Nizomuddin Shoshiy. Usulush Shoshiy. // Tarjima va izohlar muallifi: A. Ahmadaliyev // o'zbek tiliga akademik tarjima. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 416 b.
10. Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: TIU, 2009 (Bundan keyin: Qur'oni karim). – 624 b.
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2013. – J. I. – 176 b.
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – 592 b.
13. Yorqinjon Fozil. Sunnat va hadis. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – 108 b.